

## MASOFAVIY TA'LIMNING RIVOJLANISH TARIXI

*Usmanov Navdarbek Muxtorjonovich,  
Alfraganus University nodavlat ta'lim tashkiloti  
I kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada masofaviy ta'limning paydo bo'lishi va ta'limning ajralmas qismiga aylanish bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Masofaviy ta'limning yutuq va kamchiliklari muhokama maydoniga olib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lim, sirtqi ta'lim, sinxron va nosinxron ta'lim, aloqa vositalari, o'quv materiallari.

Jahon ta'lim tizimi uchun masofaviy ta'lim termini yangilik emas. Hozirgi kunda ham dunyoning eng yetakchi davlatlari o'z talabalari uchun masofaviy ta'limni tavsiya etadilar. Bu tizimdan uzoq yillar davomida an'anaviy ta'limni to'ldirish maqsadida foydalanib kelingan. Ammo ta'limning bu turi respublikamizda kunimizga qadar sinf formatiga qaraganda past samara beradi deya hisoblangan. Lekin so'nggi o'n yillikda sodir bo'lgan ilmiy-texnikaviy yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanish imkoniyati, butun dunyo miqyosida sodir bo'lgan pandemiya natijasida masofaviy ta'limga bo'lgan ehtiyoj oshib bordi. Ta'limning barcha sohalarida masofaviy ta'lim tushunchasi keng tarqaldi va amaliyotga joriy etildi. Ammo ta'limning bu turi yaqinda paydo bo'lgan emas.

Masofaviy ta'lim ilk bora 1728-yilda amerikalik professor Kaleb Fillips tomonidan joriy qilindi. U Boston gazetasiga talabalarni maktub almashish orqali mamlakatning istalgan nuqtasida stenografiya bo'yicha o'qishga jalb qilish bo'yicha murojaat qildi. Ayni shu hodisa masofaviy ta'lim va pedagogika tarixidagi keskin burilishlarning ibtidosi bo'ldi. Keyinroq ingliz tili o'qituvchisi va noshir Isaak Pitman hozirda Pitman stenografiyasi sifatida mashhur bo'lgan stenografiya tizimini ishlab chiqdi. U buni birinchi marta 1837-yilda Stenographic Soundhandda taklif qilgan. U masofaviy ta'lim rivojiga katta hissa qo'shgan olimlar sirasiga kiradi. 1840-yilda u har bir talabaga darslar ilova qilingan xatlarni pochta orqali jo'natdi. Bu tizim ham talaba, ham o'qituvchi uchun birday qulay edi. Chunki bu tizimda ta'lim olish vaqti chegaralanmagan, talabalar ishdan ajralmagan holda o'ziga qulay vaqt va makonda topshiriqlarni bajarishlari, natijalarni o'qituvchiga taqdim etishlari mumkin edi. Bu jarayon talabalarni shahar markazida joylashgan universitetga qatnash, o'qish harajatlari, turar joy kabi muammolardan xalos etgani bilan ham e'tiborlidir. Ta'limdagi bu yangilanishlar boshqa pedagoglarni ham ilhomlantirdi va yangiliklar yaratishga bo'lgan ishtiyoqini oshirdi. Masofaviy ta'limdagi yutuqlar natijasida 1856-yilda C.Tusen va G.Lanchenshteynlar Berlinda sirtqi ta'lim institutiga asos soldilar. Bu

davrda treninglar, o'quv materiallari, testlar va boshqa ta'lim bilan bog'liq jarayonlar pochtdan xat yuborish orqali amalga oshirildi. AQShdagi birinchi sirtqi maktablar 1873-yilda tashkil etildi. Oradan bir yil vaqt o'tgach, 1874-yilda Isaak Pitman o'z o'quv dasturini pochta orqali yaratish taklifi bilan chiqdi. Uzoq yillik izlanishlar natijasida, 1892-yilda Chikago universiteti professorlari tomonidan birinchi masofaviy ta'lim dasturini yaratildi va bu AQShdagi birinchi masofaviy ta'lim muassasasi sifatida tan olindi. 1899-yildan boshlab Kanadaning Qirolicha universiteti talabalarni masofadan o'qitishni yo'lga qo'ydi. O'tgan asrning 60-yillardan boshlab masofaviy ta'lim xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etildi hamda Birlashgan Millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti UNESCOning yordamida juda tez rivojlana boshladi. 1963-yilda Angliya Bosh vaziri G.Uilson tomonidan masofaviy ta'lim asosida mamlakatdagi barcha ta'lim muassasalarini birlashtirishi ko'zda tutilgan "efir universiteti" yaratilishini e'lon qildi. Bu rejaning ijrosi 1969-yilda Angliyada birinchi Ochiq Universitetning tashkil etilishi bilan ta'minlandi.

Kunimizga qadar masofaviy ta'lim kontseptsiyasining mazmunida o'zgarishlar bo'lmadi, faqat uni amalga oshirish texnologiyalari foydalanuvchilarning talab va istaklarini inobatga olgan holda ilm-fandagi eng so'nggi yangiliklar bilan boyitilib takomillashtirib borilmoqda.

Biz shartli ravishda masofaviy ta'lim tarixining rivojlanish dinamikasini 4 ta asosiy bosqichga ajratamiz.

Birinchi bosqich o'z ichiga XVIII asrdan boshlab 1960-yillargacha bo'lgan davrni oladi. Yuqorida sanab o'tilgan barcha jarayonlar shu davrda sodir bo'ldi va asosan stenograflar faoliyati bilan xarakterlandi. Bunda asosiy aloqa vositasi arzon pochta xizmati, radio va televideniye hisoblanadi. Bu davrning eng katta muammosi bir tomonlama aloqa, o'qituvchi va talaba o'rtasida bevosita aloqaning mavjud emasligi, talabada paydo bo'lgan savollar, e'tirozlarning ko'rib chiqilmasligi yoki keyingi muloqotga qadar ularning hal etilmasligi edi. Radio va televideniye orqali berilgan efirlar faqat ma'lum vaqt davomida amalga oshirilar va uni qayta tinlashning imkoni yo'q edi. Bu esa tizimda yetarlicha muammolarni keltirib chiqardi.

Ikkinchi bosqich 1965-yildan 1980-yilgacha davom etdi. Bu davrda asosiy aloqa vositalari sifatida kompyuterlarsiz texnologiyalardan foydalanildi. Talim tizimiga axborotni uzatishning yangi usullari kiritildi. Talabalarga ma'ruzalar, o'quv materiallari va topshiriqlar, asosan, audio va video kassetalar, fakslar orqali yetkazildi. Ammo bu davrda ham ta'limdan ko'zda tutilgan maqsadning to'la amalga oshishi uchun yetarlicha to'siqlar mavjud edi.

Uchinchi bosqich 1980-yildan 1995-yilgacha davom etdi. Bu davrda tizimga yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kirib keldi. Bu esa masofaviy ta'limni

ma'lum mintaqa doirasidan chiqib, butun dunyo miqyosida talabalarni jalb etish va ular bilan aloqa o'rnatish imkoniyatini yaratdi.

To'rtinchi bosqich 1995-yildan to hozirgi kunimizgacha davom etmoqda. Bu davrda yuqori tezlikda internetning mavjudligi, butun dunyoda axborot almashishning erkinligi, yuksak saviyadagi yangi avlod komyuterlari va sun'iy intellektning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi kunda uydan chiqmagan holda dunyoning eng nufuzli oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyati mavjud. Har xil videokonferensiyalar, vebinarlar, video va audio darslar, elektron kutubxonalar, ochiq internet saytlari, elektron pochta tizimi orqali millionlab talabalarning ta'lim sohasidagi ehtiyojlari qondirilmoqda.

Masofaviy o'qitish ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi:

Talimning barcha ishtirokchilari bir vaqtning o'zida o'zaro aloqada bo'lishi sinxron ta'limni tashkil etadi. Sinxron ta'lim bir vaqtda barcha ishtirokchilarning tarmoqda bo'lishini ta'milangani uchun ham unda o'zaro muloqot, muammolar, savollarga birgalikda javob topish, o'zaro fikr almashish, o'qituvchining yordamidan foydalanish – virtual ta'lim olishning eng samarali ko'rinishi sanaladi.

Ishtirokchilar turli vaqtlarda o'quv materiallari bilan shug'ullanishlariga nosinxron tarzda o'qitish deyiladi. Nosinxron ta'lim ko'pincha elektron pochta yoki ta'lim platformalari orqali amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi o'quv hujjatlari, video va audio darslar, topshiriqlar yoki fan resurslarini kurs veb-saytiga joylashtiradi. Talabalar bo'sh vaqtlarida saytga kirishlari va o'quv materiallarini o'zlashtirishlari mumkin.

Hozirgi kunda masofaviy ta'lim bo'yicha butun dunyoda Coursera, BUOOK, Khan Academy, CodeAcademy, HubSpot Academy, OpenCulture, YouTube, Alison, Saylor kabi ta'lim platformalarining bepul online darslari mashhur va juda ham ko'p foydalanuvchilarni o'z ichiga oladi. Masofaviy ta'lim shaxsga yo'naltirilganligi bilan an'anaviy ta'limdan ajralib turadi. Ta'limning bu turida talaba o'z ustida ko'proq ishlashga majbur bo'ladi, mustaqil ta'limga bo'lgan ishtiyoq rivojlanadi, qo'shimcha adabiyot va manbalar vositasida o'z bilimlarini yanada mustahkamlaydi, fanning ma'lum sohasini mukammal o'zlashtirgandan so'ng keyingi bosqichga o'tishi mumkin bo'ladi. Har bir talabaning alohida qobiliyatlari va fanni o'zlashtirish darajasini hisobga olsak, masofaviy ta'lim individual tarzda o'qishga mo'ljallangan eng samarali o'qitish jarayonidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T.: Fan, 2009.
2. Системы высшего образования стран запада. – М.: РУДН, 1991.
3. Yeldasheva G. Avstraliya ta'lim jarayonida masofaviy ta'lim // O'MKHT tizimiga pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etish muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – T.: O'MKHTRI, 2004.